

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.Sharafiddinov	
Farg'ona viloyatini Rossiya imperiyasining xom ashyo bazasiga aylantirilishi (XIX asrning ikkinchi yarmi).....	203
M.M.Temirova	
O'zbekistonda ichki ishlar organlari profilaktika inspektorlarining jamoat tartibini saqlash bo'yicha amalga oshirilgan islohotlarining dastlabki bosqichlari	208
Q.Sulaymonov	
Iqtisodiyotni globallashtirishda informatsiyaning o'rni	213
X.E.Xodjamberdiyev	
Ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekistonda agrar sohani rivojlantirilishi va uning aholi turmush tarziga ta'siri.....	216
A.A.Xakimov, O.Sh.Ubaydullayev	
Farg'ona vodiysi shaharsozlik madaniyatining xususiyatlari va rivojlanishi (Sho'rabashot dehqonchilik madaniyati misolida).....	222
M.M.Abdullayeva	
Zamonaviy o'zbeklar shaxsiyatida gender stereotiplarining namoyon bo'lish darajasi (Namangan viloyati misolida)	226
F.Abdurasulova	
Buxoro amirligida diniy ta'limning Amir Shohmurod va Amir Haydar hukmronligi davrida rivojlanishi	232
A.A.Aloxunov	
Yangilangan saylov tizimi – yurt taraqqiyotining kafolati	236
M.B.Siddiqov	
Ikkinchi jahon urushi yillarida pensiya tizimi	241
G.A.Abdug'aniyeva	
Harbiy xizmatga chaqiruvlarda tibbiy ko'rikdan o'tkazish masalasi	247
N.V.Karimova	
Farg'ona vodiysi antik davr shaharlari tarixiy–topografiyasining o'rganilishi.....	252

ADABIYOTSHUNOSLIK

A.G.Sabirdinov	
Xudoyberdi To'xtaboyevning qahramon yaratish mahorati	257
G.V.Abdullayeva	
Bolalar she'riyatida lirik qahramon masalasi.....	260
S.Q.Mamatova	
Nuh Alayhissalom obrazining tarixiy asoslari.....	267
N.Y.O'roqova	
Yangi o'zbek she'riyatida o'simlik obrazlari talqini	271
D.A.Qahharova	
Lirikada ko'ngil timsolining genezisi va tarixiy takomili.....	280
S.A.Xaqnazarova	
An'ana va novatorlik: nazariy asos, takomil va turlar	287
M.Islomova	
Hayot haqiqati va badiiy tafakkur	290
A.A.Qayumov, D.G'.Gafurova	
Badiiy detalning poetik vazifasi (X.Do'stmuhammadning "Jodi" asari misolida)	294
Y.B.Eshmatova	
Turk hikoyachiligida an'ana va yangilanishlar sintezi.....	299
Д. О.Турдалиев	
Интеграция устного народного творчества в сказках а.с. пушкина: фольклорные корни и литературные трансформации	303
F.B.Sultonqulova	
Usmon Azim she'riyatida lirik qahramon tabiati	306
G.A.Jurayeva	
Bolalar she'riyatida shakliy -mazmuniy yangilanish hamda izlanishlar.....	310



UO'K: 323/324

**O'ZBEKISTONDA ICHKI ISHLAR ORGANLARI PROFILAKTIKA INSPEKTORLARINING
JAMOAT TARTIBINI SAQLASH BO'YICHA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLARINING
DASTLABKI BOSQICHLARI**

**НАЧАЛЬНЫЕ ЭТАПЫ РЕФОРМЫ ИНСПЕКТОРОВ ПО ОБЩЕСТВЕННОМУ
ПОРЯДКУ ОРГАНОВ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ В УЗБЕКИСТАНЕ**

**THE INITIAL STAGES OF THE REFORMS OF PUBLIC ORDER PREVENTION
INSPECTORS OF THE INTERNAL AFFAIRS BODIES IN UZBEKISTAN**

Temirova Mashhura Muhammadaminovna 
Qo'qon davlat pedagogika insituti dotsenti (PhD)

Annotatsiya

Mazkur maqolada mustaqillik yillarida ichki ishlar sohasida amalga oshirilgan islohotlar, militsiya hodimlarining faoliyatini tashkillashning huquqiy asoslarini mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida so'z boradi. Shuningdek maqolada respublikadagi ijtimoiy hayot va uning jamoat xavfsizligiga ta'siri masalalari chuqur tahlil etilgan. Jumladan mustaqillikning dastlabki yillaridagi aholi orasidagi iqtisodiy muammolar oqibatida jamiyatdagi noroziliklar, huquqbuzarliklar, mayda va yirik jinoyatlar aniq raqamlar bilan tahlil etilgan. Maqolada Respublikadagi mazkur holatlarni bartaraf etish uchun aholini ijtimoiy himoyalash masalalari va shu orqali jinoyatchilikni kamaytirish mehanizmlari aytiladi.

Аннотация

В данной статье говорится о реформах, реализованных в сфере внутренних дел за годы независимости, мерах, направленных на укрепление правовой основы организации деятельности сотрудников полиции. В статье также глубоко анализируется общественная жизнь в республике и ее влияние на общественную безопасность. В частности, с точными цифрами проанализированы социальные протесты, нарушения, мелкие и тяжкие преступления, вызванные экономическими проблемами среди населения в первые годы независимости. В целях устранения данных ситуаций в республике в статье раскрыты вопросы социальной защиты населения и тем самым механизмы снижения преступности.

Abstract

This article talks about reforms implemented in the field of internal affairs during the years of independence, measures aimed at strengthening the legal basis of organizing the activities of police officers. The article also deeply analyzes social life in the republic and its impact on public safety. In particular, social protests, violations, minor and major crimes caused by economic problems among the population in the first years of independence were analyzed with exact figures. In order to eliminate these situations in the Republic, the article describes the issues of social protection of the population and thereby the mechanisms of reducing crime.

Kalit so'zlar: ichki ishlar, jamoat, huquq, millat, erkinlik, xavfsizlik, jinoyat, jazo, huquqbuzarlik, tartib, intizom.

Ключевые слова: внутренние дела, общество, закон, нация, свобода, безопасность, преступление, наказание, правонарушение, порядок, дисциплина.

Key words: internal affairs, community, law, nation, freedom, security, crime, punishment, offense, order, discipline.

KIRISH

So'ngi yillarda dunyo miqyosida globllashuv jarayonlari, iqtisodiy, mafkuraviy, milliy mojarolar va turli siyosiy to'qnashuvlar qurolli harakatlarga aylanib borayotganligi sir emas. Dunyoning ko'plab davlatlarida qarama-qarshiliklarning xalqaro tus olayotganligi, ommaviy noroziliklar, mintaqaviy mojarolar, ichki nizolarning kuchayib borayotgani davlatlar xavfsizligini ta'minlash masalasiga e'tiborni kuchaytirmoqda. Mazkur holatlar davlat mexanizmini asosiy bo'g'inlaridan biri bo'lgan politsiyaning davlat boshqaruvi va fuqarolar xavfsizligini ta'minlovchi organ sifatidagi o'rni va rolini kuchaytirib borish zaruratini oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'linmalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ2896-

TARIX

sonli (2017 yil 18 aprel) qarori [1] O'zbekistonda ichki ishlar profilaktikasi inspektorlari faoliyatini ilmiy asosda tahlil etishni taqozo etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mavzuga oid dastlabki tadqiqotlarni o'tkazgan N.Taumuratovning "История милиции Каракалпакстана в период восстановления национальной государственности (1917-1936 гг.)" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi (1999) va A.Yermetovning "Turkiston ASSRda nazorat organlari va ularning totalitar tuzum o'rnatilishidagi o'rni. (1925-1991 yillar)" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi (2019), Q.Qodirov. Mustaqillik davrida O'zbekistonda ichki ishlar idoralarining faoliyati (1991–2011 yillar): Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasilarini (2019) keltirib o'tish mumkin. Mazkur tadqiqotlarda ichki ishlar sohasi faoliyatini turli bosqichlari bo'yicha tahlil qilingan. Jumladan, N.Taumuratov o'z tadqiqotida Qoraqalpog'istonning sovet davridagi ichki ishlar sohasi faoliyatini yoritgan bo'sa, A.Yermetov shu davrdagi O'zbekistondagi ichki ishlar sohasi faoliyatini ilmiy jihatdan tahlil etgan. Ammo mazkur sohaning mustaqillik yillaridagi faoliyati tarixiylik jihatdan faqatgina Q. Qodirov tomonidan ilmiy asosda tahlil etilgan. Mazkur tadqiqotlar o'zining soha faoliyatini turli davlar va hududlar bo'yicha tarixiylik jihatdan tahlil etilganligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin yuqoridagi tadqiqotlarning barchasida ichki ishlar sohasi faoliyati umumiy tarzda o'rganilgan. Shu sababdan ichki ishlar sohasining muhim va yirik tarmog'i hisoblangan profilaktika inspektorlari faoliyati yaxlit tarzda tahlil etish dolzarb hisoblanadi.

Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning tarixiylik, mantiqiy-yuridik, qiyosiy tahlil, tizimlashtirish, xronologik kabi usullaridan foydalanildi. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda ichki ishlar organlari profilaktika inspektorlarining jamoat tartibini saqlash bo'yicha amalga oshirilgan islohotlarining dastlabki bosqichlari mavzusini tadqiq etishda tadqiqotlar va mavzuga doir adabiyotlar, gazeta va jurnal materiallari hamda arxiv materiallari nazariy asos bo'lib xizmat qilgan. Manbalardan olingan ma'lumotlar tahlili mavzuga xolisona, tarixiylik qoidasi asosida yondashuvni talab etadi. Yuqorida ta'kidlangan usullardan foydalanish natijasida quyidagi ilmiy yangilik sifatida o'rganildi: ichki ishlar organlarining faoliyatini yanada takomillashtirish uchun respublikada amalga oshirilgan islohatlarning natijasida respublikadagi ichki ishlar profilaktikasi sohasida ijobiy o'zgarishlarga erishildi. Xususan, huquqbuzarlik va jinoyatchilik ko'rsatkichlari yil sayin kamayib borganligi, ayniqsa 1990 yillarning boshlarida kuzatilgan rekvizit (o'ta og'ir) jinoyatchilik holatlari bartaraf etildi. Shuningdek sohaning moddiy-texnik bazasi mustahkamlanib, bu esa soha hodimlarining ish unumdorligini ortishiga xizmat qildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

O'zbekistonda 1980 yillarning oxirlaridan xalq orasida milliy o'zlikni anglash boshlanganidan keyin respublikadagi ichki holat murakkablashib boradi. Bu esa o'z navbatida milliy nizolar, qurolli to'qnashuvlarni keltirib chiqardi. Mana shunday murakkab bir vaziyatda ichki ishlar sohasini takomillashtirish vujudga kelayotgan turli nizoli muammolarni oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar olib borish zarur edi. Ammo buning uchun davlat boshqaruvini aniqlashtirib olinishi, ya'ni respublika taqdiri endilikda qay tarzda davom etishi hali noma'lum edi. Ayni paytda ichki ishlar sohasini markaz tomonidan isloh qiluvchi kuchlarning o'zi zaiflashib borayotgan edi. Bu holat respublikaga ham o'z ta'sirini o'tkaza boshlagan edi. Masalan, Toshkent siyosatshunoslik va boshqaruv instituti 1991 yili fevral oyida Toshkent, Samarqand, Farg'ona shaharlarida 10 ta sanoat korxonasida 400 ishchi bilan sotsiologik so'rov o'tkazdi. So'ralganlarning 67,8 foizi mamlakatdagi iqtisodiy ahvol yaxshilanmaydi, deb, 72 foizdan ortig'i esa hayotdan qoniqmayotganini aytdi. Ishchilarda sobiq markazning sotsial-siyosiy tartibotlariga ishonmaslik vujudga keldi. Jumladan: "Umumittifoq va mahalliy hokimiyat hamda boshqaruv organlariga sizning munosabatingiz qanday?", - deb berilgan savolga 4,5 foiz kishi "O'z umidimni umum ittifoq davlat idoralari bilan bog'layman", 32,5 foiz ishchi esa "Respublika davlat organlari bilan bog'layman", — deb javob berdi. Ushbu javoblardan ham ko'rinib turibdiki, fuqarolarda umumittifoq idoralariga emas; balki respublika davlat idoralariga, tabiiyki, respublikaning mustaqil rivojlanishiga ishonchi tobora orta boshladi [2.31].

Respublikada tashqi ta'sirlar oqibatida yuz berayotgan ichki tartibsizliklar O'zbekiston sobiq ittifoqdan ajralib, o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan keyin islohotlar davri boshlanishi bilan yaxshilanib bordi. Xususan barcha sohalarida bo'lgani kabi ichki ishlar sohasi faoliyatini ham tubdan takomillashtirish bo'yicha chuqur islohotlar olib borildi.

Ichki ishlar organlari tizimida islohotlarning birinchi bosqichi istiqlool arafasida boshlandi. O'sha davrda militsiya xodimlarini o'ldirish, qurolini olib qo'yish maqsadida ularga hujum qilish, ularning xizmat faoliyatiga aralashish hollari ko'payib borgan. Mana shu holat esa mehnatkashlarning adolatli noroziligini keltirib chiqargan. Bu davrda ichki ishlar organlari xodimlarini huquqiy jihatdan himoya qiluvchi qonun-qoidalar to'la shakllanmagan edi. Shu sababli Sobiq Ittifoq davridagi 1990 yil 31 oktyabrda "Militsiya xodimlarini ijtimoiy va huquqiy jihatdan himoya qilishni kuchaytirish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni asos bo'lib xizmat qilib turdi [3]. Mazkur qonunda, militsiya xodimlari davlat hokimiyatining vakil ekanligi, xodimining qonuniy talablarini barcha fuqarolar va mansabdor shaxslar bajarishga majburiyligi, militsiya qonuniy talabini bajarmaslik, shuningdek, uni haqoratlash, unga qarshilik ko'rsatish, do'q-po'pisa qilish, zo'rlik ishlatish va uning hayotiga tajovuz qilish, militsiya xodimining zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarishiga to'sqinlik qiluvchi boshqa xatti-harakatlarni qilish O'zbekiston Respublikasi qonunlarida belgilangan javobgarlikka olib kelishi ta'kidlandi. Shuningdek, militsiya xodimiga turar-joy maydoni taqsimlashda, telefon o'rnatishda, maktabgacha bolalar tarbiya muassasalaridan berishda imtiyozlardan, transportning barcha turlariga navbatsiz uyga o'rin bileti sotib olish, mehmonxonaga joylashish huquqidan foydalanish ijtimoiy-maishiy ta'minotning boshqa masalalarini hal etishda xalq deputatlari mahalliy Sovetlarining qarorlarida ko'zda tutilgan tartibda imtiyozlardan foydalanadi. Militsiya xodimining hayoti tegishli budjet mablag'lari hisobidan davlat ijtimoiy sug'urtasidan o'tkaziladi. Militsiya xodimi o'z xizmat vazifasini yoki ijtimoiy burchini bajarayotganligi munosabati bilan uning mulkiga yetkazilgan zarar tegishli budjet mablag'lari hisobidan to'la hajmda to'lanadi, shuning uchun sud orqali bu zarar aybdordan undirib olinadi.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin ichki ishlar sohasidagida islohotlarning boshlanishi bu 1991 yil 25 oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston SSR Ichki ishlar vazirligini O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligiga aylantirish to'g'risida"gi qarori [4] e'lon qilindi. Shuningdek ichki ishlar xodimlari faoliyatini Vazirlar Mahkamasining 1993 yil 8 yanvardagi ichki ishlar organlarida xizmat o'tashning vaqtinchalik nizomini tasdiqlash to'g'risida"gi 16-sonli qarori [5] ham birmuncha tartibga solish uchun huquqiy asos bo'lib xizmat qildi. Aynan ushbu qarorni amaldagi ijrosi natijasida O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirligi va uning joylardagi xizmatlari huquqni muhofaza qilish idoralari tizimiga kiritildi.

Qarorda Ichki ishlar vazirligi haqida nizom qabul qilindi. Nizomda umumiy qoidalar, vazirlikning huquq doirasi, faoliyatini tashkil etish, shuningdek, uning markaziy apparati strukturasini ta'sis etildi. Shuni nazorat qilish zarurati Respublikada hali huquqni muhofaza qilishni boshqarishning asoslari to'liq shakllanmaganligi, yangi Bojxona, Chegara qo'shinlari, Prokuratura, Mudofaa, Sud, Milliy xavfsizlik choralari yuklatilgan edi. Jumladan, respublika chegaralarini mustahkamlash va uni ko'rliklash ichki ishlar organlariga topshirilib, har 200 kilometr masofaga 30 ga yaqin chegara postlari qo'yildi, har birida uch kishidan iborat ichki ishlar xodimlari xizmat qildi [6].

1992 yil 8 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinishi ichki ishlar organlarining qonuniy faoliyat olib borishini yanada mustahkamladi. Jumladan, Konstitutsiyaning 13-moddasida ko'rsatilganidek, "O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi. Ularni ta'minlash esa boshqa davlat organlari, muassasalari va tashkilotlari qatorida ichki ishlar organlarining ham asosiy vazifasidir", deb belgilandi [7].

Konstitutsiyaning 121-moddasida qonuniylik va huquq-tartibotni, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilishda jamoat tashkilotlari va fuqarolar huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yordam ko'rsatishlari mumkinligining kafolatlanganligi ichki ishlar organlarining jamoatchilik bilan hamkorligini tashkil etishga asos yaratdi [8].

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov tashabbusi bilan boshlangan jinoyatchilikka qarshi ayovsiz kurashni qanchalik kuchaytirishiga qaramasdan jamiyatda jinoyat qilishga moyilligi bor bo'lgan qatlamlar mavjud edi.

Shu bois 1992 yil 9 dekabrda "Jazoni ijro etish muassasalaridan bo'shatilgan shaxslar ustidan ichki ishlar organlarining ma'muriy nazorati to'g'risida" gi qonuni [9] qabul qilindi. Chunki ijtimoiy zaif holatiga tushgan shaxs yana jinoyatga qo'l urishga harakat qilar edi. Mustaqillikdan keyin jamiyatda ijtimoiy zaif qatamlarni himoya qilish va ularni jinoyatga qaytadan aralashishini oldini olish uchun qabul qilingan qonunchilik hujjatlarining mohiyati ta'riflanadi. Bu qonunlarda ma'muriy nazorat tartibi belgilangan bo'lib, nazoratga olingan shaxslarga cheklovlar kiritish va ularning bajarishi kerak

TARIX

bo'lgan majburiyatlar ko'rsatilgan. Shuningdek, ichki ishlar organlari xodimlarining bunday holatlarga nisbatan huquqlari va vazifalari ham aniq qilib belgilangan. Bu esa ijtimoiy zaif shaxslarning huquqlarini himoya qilish va ularni jamiyatga ijobiy integratsiyalashga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov 1994 yil 5 mayda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o'n beshinchi sessiyasida so'zlagan nutqida shunday dedi: "Demokratik davlat o'z fuqarolariga tinch yashash va mehnat qilish imkonini to'la ta'minlab bermog'i kerak. Lekin, ayni zamonda jinoyatchilikka qarshi kurash shunchaki kampaniyaga aylanib ketmasligi lozim. Bu ish davlat boshqaruvning asosiy tamoyillaridan biri bo'lmog'i lozim" [10.21].

Respublikada jinoyatchilikka qarshi kurashish, jamiyatni muhofaza qilish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar ijobiy samara berdi. 1994 yilda umumiy jinoyatchilik 1993 yilga nisbatan 18,3 foizga kamaydi. Og'ir tan jarohati olish holatlari 7,3 foizga, talonchilik 22,6 foizga, talonchilik 11,5 foizga, o'g'rilik 19,6 foizga kamaydi.

1995 yildan boshlab politsiya xodimlari uchun alohida milliy farqlash belgilari joriy etildi. Epaulettedagi oldingi besh qirrali yulduz o'rniga "musamman" deb nomlangan sakkiz qirrali yulduz amalga oshirildi. Bundan tashqari, formadagi yoqa belgilari O'zbekiston gerbini ifodalovchi ramzlarga almashtirildi [11.56].

Aholining, xalq xo'jaligi obyektlarining ishonchli yong'in xavfsizligini, temir yo'l transportida tashiladigan mahsulotlari va boshqa qimmatli yuklarning saqlanishini ta'minlash maqsadida, 1996 yil 4 noyabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar organlarini mustahkamlash to'g'risida"gi 378-sonli qarori qabul qilindi [12]. Mazkur qaror ichki ishlar hodimlarini jamoat tartibini saqlash borasidagi faoliyatida birmuncha vakolatlar berib, respublikadagi ijtimoiy hayotda tez-tez uchrab turgan mayda qonunbuzrliklarni kamaytirdi.

O'zbekistonning birinchi prezidenti I. A. Karimov 1996-1997 yillarda mamlakatda shakllanayotgan fuqarolik jamiyatining asoslarini mustahkamlashga katta e'tibor qaratdi. U bu borada "Tartib-qoidani mustahkamlash va qonunlarga rioya etishni kuchaytirish, ... Bunda, eng avvalo, poraxo'rlik, ta'magirlik va tovlamachilik yo'li qat'iy to'silishi kerak"[13.34] ligini qat'iy ta'kidlab, huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarini xizmat burchiga halollik va sodiqlik bilan munosabatda bo'lishga undadi.

Afsuski, "1996-1997 yillar mobaynida huquq-tartibot organlarida 191 kishi poraxo'rlik bilan qo'lga tushib, 257 kishi mansabini suiiste'mol qilishda ayblanib, qilmishlariga yarasha jazo olgan" [14.35].

Ichki ishlar tizimida o'tkazilgan islohotlarning ikkinchi bosqichida O'zbekistonda jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni ta'minlash, jinoyatchilikka qarshi kurash, xususan, uning oldini olishning bir qator sabablari mavjud:

1. Birinchidan, aholi yashash hududlarida jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni ta'minlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish hamda uning oldini olish tizimi zamon talablariga mos emas edi.

2. Ikkinchidan, turar-joy hududlarida kecha-yu kunduz jamoat tartibini saqlash, xavfsizlikni ta'minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va jabrlanganlarga o'z vaqtida yordam ko'rsatishni samarali amalga oshiradigan tizim mavjud emas edi.

3. Uchinchidan, ichki ishlar organlari ichida, ayniqsa turli xizmatlar o'rtasida jinoyatchilikning oldini olish borasida samarali hamkorlik tizimi tashkil etilmagan edi.

4. To'rtinchidan, ichki ishlar organlariga yordam ko'rsatish istagida bo'lgan jamoatchilik vakillari va fuqarolarni jinoyatchilikka qarshi kurashda jalb qilish hamda ular bilan samarali hamkorlik qilish tizimi yo'q edi.

Mazkur kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida davlat rahbarining tashabbusi bilan, 1999-yil 12-aprelda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan "Toshkent shahrida jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni ta'minlash konsepsiyasi to'g'risida" qaror qabul qilindi [15.572]. Bu hujjat ichki ishlar organlarida jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni ta'minlashda keng ko'lamli islohotlarni boshlab berdi.

Bundan tashqari, 1999-yil 14-dekabrda Vazirlar Mahkamasi tomonidan "Shaxsning hayotiga qarshi jinoyatlarga nisbatan jazoni kuchaytirish to'g'risida" qaror [16] va 1999-yil 26-fevralda Prezident tomonidan "O'zbekiston Respublikasi pasport tizimini takomillashtirish haqida" nizom [17.156-165] qabul qilindi. Bu nizom asosida O'zbekiston fuqarolariga pasport berish, qayd kilish, ro'yxatga olish va ro'yxatdan chiqarish bilan birga pasport tizimi qoidalarini buzganlik uchun

javobgarlik tartibi belgilandi. Bu ichki ishlar organlarining ma'muriy hududda pasport tizimi qoidalariga rioya qilish bilan bog'liq faoliyatini tartibga soldi. Shuningdek, 1998 yil 1 may "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi [18.412-420] va 2000 yil 15 dekabr "Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida"gi [19.147-158] (yangi tahrirdagi) qabul qilingan qonunlar ichki ishlar organlarining insoniyatga xavf solayotgan terrorizm va diniy ekstremizmga qarshi kurash hamda ularni oziqlantiruvchi sabab, sharoitlarni bartaraf etish bo'yicha faoliyatini tartibga soldi.

XULOSA

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, O'zbekistonda ichki ishlar organlari hodimlarining jamoat tartibini saqlash bo'yicha amalga oshirilgan islohotlarining dastlabki bosqichlarida soha faoliyati birmuncha tartibga solindi. Xususan, ichki ishlar sohasini takomillashtirish borasidagi qabul qilingan qaror va famonlar, shunindek hukumatning aholining ijtimoiy turmush darajasini yaxshilashga qaratilgan chora tadbirlari natijasida respublikada jamoat havfsizligi masalari birmuncha ijobiy yechim topa oldi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ички ишлар органларининг ҳуқуқбузарликлар профилактикаси бўлинмалари фаолиятини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-2896-сонли (2017 йил 18 апрель) қарори // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – Т., 2017. – № 17. – 288-м.
2. Jo'rayev N. Mustaqil O'zbekiston tarixi. G'afur G 'ulom. Toshkent – 2013. –В .31.
3. Ўзбекистон Республикаси Олий советининг Ведмостии. 1990.й. N.31.33. 355-м. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси 1995.й, N6, 121-м.
- 4.Ўзбекистон Республикаси Ҳукумати қарорлари тўплами. – 1991 й, – №10. – 36-модда.
5. O'zMA. Fond M-37. 1-ro'yxat, 155-ish, 216-varaq
6. Милитсия ҳаётидан ҳушёр соқчилар.Ўзбекистон газетаси. 1992 йил. 18январ. № 13
- 7.Ўзбекистон Республикаси Конситутцияси. –Т.: 2014.13-м
8. Ўзбекистон Республикаси Конситутцияси. –Т.: 2014.121-м
9. O'zMA. M-69. P-2.й.ж. 11-12-варақ.
10. Каримов И.А. Йўлимиз мустақил давлатчилик ва тараққиёт йўли. –Т.: 1994. –Б.21.
11. Қодиров Қ. "Мустақиллик йилларида Ўзбекистонда ички ишлар идораларининг фаолияти (1991-2011й.й.)"мавзусидаги тарих фанлари бўйича фалсафа доктори . (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзган диссертацияси. –Т.: 2019. –Б.56.
12. Ўзбекистон республикаси вазирлар маҳкамасининг қарорлари тўплами. . –Т.: 1996. –№.11. №.378.
13. Каримов И.А.Biz kelajakni o'z qo'limiz bilan quramiz. –Т.: 1998. –Б.34.
14. Каримов И.А.Biz kelajakni o'z qo'limiz bilan quramiz. –Т.: 1998. –Б.35.
15. Odilqoriyev T, Ismailov I, Ismailov T. va boshqalar. Ma'muriy huquq. Darslik. –Т.:O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi. -2010. –Б.572.
16. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарорлари тўплами. . –Т.: 1999. –№.12. №.38.
17. Ўзбекистон Республикаси Олий мажлисининг ахборотномаси. –Т.: 1999. –№.3. -65-м –Б .158-165.
- 18.Ўзбекистон Республикаси Олий мажлисининг ахборотномаси. –Т.: 1998. –№.5-6. -99-м –Б .412-420.
19. Ўзбекистон Республикаси Олий мажлисининг ахборотномаси. –Т.: 2001. –№.2. -15-м –Б .147-158.